

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI**

**ERGASHEV OZODBEK SHAVKATOVICH**

**INSON BORLIG'I VA UNING IJTIMOYIY  
ANTROPOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan - 2025**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по философским наукам**

**Contents of Dissertation Abstract  
of the Doctor of Philosophy (PhD) on Philosophical Sciences**

**Ergashev Ozodbek Shavkatovich**

Inson borlig‘i va uning ijtimoiy antropologik xususiyatlari ..... 3

**Эргашев Озодбек Шавкатович**

Сущность человека и его социально-антропологическое свойство..... 25

**Ergashev Ozodbek Shavkatovich**

Human existence and its social anthropological characteristics..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works..... 54

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI**

**ERGASHEV OZODBEK SHAVKATOVICH**

**INSON BORLIG'I VA UNING IJTIMOY  
ANTROPOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan - 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi byulletenida B2022.2.PhD/Fal774 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat texnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://namdu.uz>) hamda “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Nazarov Muxiddin**

falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

**Rasmiy opponentlar:**

**G‘aniyev Baxodirjon Sadikjanovich**

falsafa fanlari doktori (DSc), professor

**Sodirjonov Muxriddin Mahamadaminovich**

sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03.30.04.2021.F.76.06 raqamli Ilmiy Kengashning 2025-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 1160107, Namangan shahar, Uychi ko‘chasi, 316-uy. Tel.: (99869) 228-85-25, Pochta:info@namdu.uz.).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 1160107, Namangan shahar, Uychi ko‘chasi, 164-uy. Tel.: (99869) 228-85-25, Pochta:info@namdu.uz.).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi).

**R.T. Jo‘rayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, siyosiy fanlar doktori (DSc), professor

**Q.O. Maxkamov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**M.I. Ismoilov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi).**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda sodir bo‘layotgan global ijtimoiy o‘zgarishlar, jamiyat va inson borlig‘ining ma’naviy-madaniy jihatlarini takomillashtirish orqali undagi umuminsoniy xususiyatlarni takomillashtirish, antropologik mohiyati global axborot makonida eng afzal va eng qimmatli resurs sifatida qabul qilishni taqozo etmoqda. Global axborot jamiyatning qaror topishi inson turmush tarziga texnogen taraqqiyot yutuqlarining kirib borishi, o‘ziga xos xususiyatga ega biologik tur ekanligi, aqliy rivojlanishi, fikrlashi, qobiliyati, ijodkorligi, ijtimoiy tuzilma va madaniy me’yorlarining mavjudligi bilan xalqaro hamjamiyatning integratsiyalashuvini belgilamoqda va migratsiya, marginallik, kosmopolistik tafakkurning shakllanishi madaniyatlararo tafovutlarning ortib borishiga va madaniy baynalmilallashuv omillarining rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda. Kishilar faoliyatida umuminsoniy qadriyatlar, inson-jamiyat-tabiati tamoyillari tabiiylik bilan ijtimoiylik o‘rtasidagi o‘zaro dialektik aloqadorlikda inson borlig‘ining barcha ko‘rinishlarini falsafiy baholash va ijtimoiy munosabatlarda o‘ziga xos usul va yondashuvlarni yaratish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Dunyoda inson borlig‘ining integrativlik va adaptivlik xususiyatlarini rivojlantirish, inson omilining jamiyat taraqqiyotiga ratsional ta’sirini aniqlash, zamonaviy dunyoda inson antropologiyasini yaratish, uning madaniy avtonomligini ochib berishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Rivojlangan davlatlarda inson omiliga nisbatan ustuvorlik, yuksak texnologiyalarning egasi, sifatida e’tirof etilib, inson borlig‘ining o‘ziga xos jihatlarini aniqlash, insondagi ong va ongsizlik muammosi, texnogen rivojlanish va sun’iy idrokning inson hayotidagi mazmuni, sivilizatsiyalararo ziddiyatlar markazida inson omilining mohiyatini ochib berishga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda inson borlig‘i va uning aqliy intellektual o‘ziga xosligi jahon ijtimoiy taraqqiyoti va jamiyat farovonligining asosiy intellektual yo‘nalishi hisoblanadi.

Inson tushunchasi va uning ma’naviy hamda ijtimoiy borlig‘iga nisbatan yurtimizda o‘ziga xos yondashuv mavjud bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 29-maydagi “Asosiy maqsad – mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish” mavzusida o‘tkazgan yig‘ilishda bildirgan fikrlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida “Mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshlik darajasi va innovatsion taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil – Strategiyaning bosh maqsadi” sifatidagi muhim vazifa belgilab berilganligi<sup>1</sup> hamda “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish”

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 21-sentyabrdagi “2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544 sonli farmoni.<http://lex.uz>. Murojaat etilgan sana: 20.10.2020.

deb nomlangan 4-yo‘nalishdan o‘rin olgan 33 ta maqsad<sup>2</sup> O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish nechog‘lik muhimligini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentyabrdagi PF-5544-son “2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi” farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 545-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini taraqqiy ettirish va ularni amalga oshirish usullari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat‘i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotdan rozi bo‘lib yashashi – bizning bosh maqsadimizdir”<sup>3</sup>, “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun”<sup>4</sup> degan fikrlari, mazkur tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo‘ldi.

Jamiyat hayotida dunyoviy va diniy omillar o‘rtasidagi sog‘lom muvozanatni to‘liq ta‘minlashga yordam beradigan, kuchli tarbiyaviy salohiyatga ega bo‘lgan, xalqimiz ma‘naviyatining asrlar davomida xizmat qilib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar, azaliy an‘ana va urf-odatlarining qadrsizlanishiga, deideologizatsiyaga yo‘l qo‘yish hollari uchramoqda. Dunyoqarashi keng, ma‘nan barkamol insonni shakllantirishga xizmat qiladigan g‘oyaviy tarbiya mexanizmining ta‘siri kamaygani sezilmoqda<sup>5</sup>.

Falsafiy antropologiya tarafdorlari insonning mazkur talqinidan kelib chiqib, bu fan izchil ilmiy qarashlarni ilgari surishga da‘vogar bo‘la olmasligini va ayrim

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. <http://www.lex.uz>. Murojaat etilgan sana: 15.02.2022.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - Toshkent. 2018 yil, 28 dekabr, [www.president.uz](http://www.president.uz) Murojaat etilgan sana: 15.07.2021.

<sup>4</sup> Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг қундалик қондаси бўлиши керак. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017. –Б.7.

<sup>5</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2021 y. B. 294.

fanlar: psixologiya, sotsiologiya, biologiya va ijtimoiy fanlarning turli yondashuvlari va xulosalarini sintezlovchi inson haqidagi bilimlar tizimini yaratishga qaratilishi lozimligini qayd etmoqdalar.

Inson borlig'ining ilk ko'rinishlarini Yunon olimlari Platon<sup>6</sup>, Agrippa<sup>7</sup>, Asmus<sup>8</sup> kabilar o'rganganlar. Xususan, inson borlig'i g'oyasi ijtimoiy - falsafiy tafakkur tarixida uzoq ildizlarga ega.

Rus olimlaridan I. Zabolotskaya<sup>9</sup>, N. S. Plotnikov<sup>10</sup>, V. B. Iordanskiy<sup>11</sup>, kabilar tomonidan o'rganilgan.

Inson muammosi bo'yicha rus faylasuflari I.Frolov, B.Grigoryan, B.Ananov, L.Buyeva, R.Karpinskaya ijtimoiylashgan odam sxemasini rad etishga harakat qildilar. Ular insonga (J.Lokk kabi) jamiyatda kerakli so'zlarni yozuvchi toza taxta sifatida qarash to'g'ri emasligini, individning tabiiy-biologik negizlariga ham jiddiy e'tibor berish zarurligini ta'kidlaydilar.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi doirasida T.Kilibayeva, Ali Rezo Muhammad Sargolza<sup>12</sup> va boshqalarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari tadqiq etilgan. O'zbek olimlaridan N.A.Shermuxe<sup>13</sup>, A.Choriyev<sup>14</sup>, A.Abdusamedov<sup>15</sup>, N.Komilov<sup>16</sup>, J.Eltazarov<sup>17</sup> va boshqalar inson borlig'i va uning antropologik asosi bo'yicha tadqiqot olib borganlar. Biroq, yuqoridagi olim va izlanuvchilarning tadqiqotlarida inson borlig'i asosan falsafiy davriy mohiyatlarga asoslangan xolda tahlil etilgan. Shuningdek, N. Shermuxe<sup>13</sup>, Z.R. Kadirova, K. Tulenova, L.A. Qurbonova, Z. Mo'minova, G.Yunusova, Yo.Ernazarovalar tomonidan insonning mohiyati, uning ma'naviy olami, ichki dunyosi, insondagi innovatsion ong va dunyoqarashni tadqiq etganlar.

Mazkur tadqiqotda asosan inson antropologik borlig'ining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlariga e'tibor qaratilgan bo'lib, ushbu tadqiqot ishi zamonaviy inson borlig'i bo'yicha qilingan avvalgi ishlardan farq qiladi.

### **Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.**

Dissertatsiya Andijon davlat texnika instituti ITD-1-55. "Globallashuv jarayonida antropologik inqiroz va uni oldini olish usullari" mavzusidagi ilmiy - tadqiqot ishlari rejalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Yangi O'zbekistonda zamonaviy inson omilini shakllanishining ijtimoiy-falsafiy asoslari va antropologik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

<sup>6</sup> Платон//Всемирная энциклопедия.-Москва: Современный литератор, 2001. –С. 234.

<sup>7</sup> Агриппа О. Окультная философия.-СПб.: АГРАФ, 2005.-С.54.

<sup>8</sup> Qarang: Ф.В.Асмус. История античной философии.-С..21

<sup>9</sup> Заболоцкая И.К. Философия здоровья и радости или потребления?//Философия в современном мире.Т.1.: Нижний Новгород.2012.-С. 523.

<sup>10</sup> Плотников Н.С. Переделы перспективы современных философских теорий мифа. Вопросы философии.1993, № 5. - С.186.

<sup>11</sup> Иорданский В.Б. История культуры Африки.-Москва: АСТ, 2004. –С. 6.

<sup>12</sup> Mazkur mualliflarning asarlari dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'uxati"da keltirilgan.

<sup>13</sup> Шермухамедова Н.А. Фалсафа ва фан методологияси.-Тошкент,ЎзМУ.2005.-Б.48.

<sup>14</sup> Choriyev A. Inson falsafasi. Birinchi kitob. – Toshkent:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.2007. -B 13-27

<sup>15</sup> Абдусамедов А. Динлар тарихи.Т.:Ўқув кўлланма.2004.-Б.23

<sup>16</sup> Комилов Н.Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. Биринчи китоб.Тавҳид асрори.-Т.:Ўзбекистон,1999.-Б.37,48.

<sup>17</sup> Усмонов Б.Ш., Қодиров М.Қ., Элтазаров Ж.Д. Инсон капиталининг шаклланишида таълим ва илм-фаннинг роли. Илмий-оммабоп рисола. - Тошкент: 2015. -Б.14

### **Tadqiqotning vazifalari:**

Inson borlig'ini tashkil etuvchi omil va xususiyatlarni aniqlash hamda dunyoqarashning turlari, darajasini belgilash;

inson aqliy va ma'naviy borlig'ining intellektual aspektlarini ochib berish;

inson borlig'i axloqiy, iqtisodiy, qobiliyat, mehnat, dam olish, moddiy ehtiyoj kabi tabiiy omillar evaziga namoyon bo'lishini ilmiy jihatdan asoslash;

mamlakatimizda inson kapitalini taraqqiy ettirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

Yangi O'zbekistonning ichki imkoniyati sifatida zamonaviy inson ma'naviy va iqtisodiy borlig'ining eng muhim parametrlari aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida inson ijtimoiy antropologiyasi va uning jamiyatni taraqqiy ettirish jarayonlaridagi ahamiyati olingan.

**Tadqiqotning predmeti** insonning ijtimoiylashuv jarayonlari ijtimoiy globallashuvni taraqqiy ettirishning ijtimoiy-falsafiy omillari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida mantiqiylik, tarixiylik, qiyosiy tahlil, sinergetik, tizimli yondashuv va umumlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

dunyoqarash aqliy faoliyat va ijtimoiy ongining dinamik o'zaro ta'sirini ifodalovchi parametr sifatida, insonning ijtimoiy antropologik o'ziga xosligini namoyon etuvchi ma'naviy borliq va axloqiy mo'tadillikning falsafiy aspektlari ochib berilgan;

insonning ijtimoiy-ontologik borlig'ini eksplikatsiya qilishda stoik falsafaning ataraxia (vazminlik, ichki muvozanat) va tasavvufiy introspeksiyaning sinergetik integratsiyasiga asoslangan paradigmalar xususiyatlar, insonning ijtimoiy mohiyatining aksiologik va prakseologik funksiyalarini mustahkamlab, globallashuv davrida inson ma'naviyatiga nisbatan xavf tug'diruvchi yangi tahdidlar (axborot bosimi, sotsial alienatsiya, identitetning yo'qolishi) ni tizimlashtirish imkoniyatlari ilmiy asoslagan;

jamiyatda inson borlig'ini belgilovchi ma'naviy (dunyoqarash, tafakkur), iqtisodiy (mehnat, moddiy ehtiyojlar), ijtimoiy (turmush tarzi, faoliyat) omillari o'rtasidagi barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy globallashuvning zamonaviylik dialektikasida aksiologik tafakkurni mustahkamlab, shaxs-oila-jamiyat tizimida an'anaviy qadriyatlarning ratsional rivojlantirish va insonning kreativ faolligi va intellektual salohiyatiga ijobiy ta'siri dalillangan;

axborotlashish sharoitida insonning ma'naviy-antropologik borlig'ida yuz berayotgan virtuallashuv hodisasining kognitiv va aksiologik deformatsiyalari tasavvufning introspektiv (o'z-o'zini anglash) g'oyalari orqali ochib berilib, inson biologik, sotsiokultural va kommunikativ faktorlarining o'zaro bog'liqligini ifodalovchi strukturaviy birlik sifatida ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

inson borlig'ining ijtimoiy-falsafiy ta'rifi, uning rivojlanish omillari, turlari va shakllari, shuningdek, ijtimoiy ijodiy yo'nalish sifatidagi insonning aqliy salohiyati ochib berilgan;

inson aqliy va intellektual borlig'ini shakllantirish hamda rivojlantirishda qonun hujjatlarining o'rni va ahamiyati asoslangan;

global axborotlashgan jamiyatda inson antropologiyasidagi o'zgarishlarni dalillash.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalar materiallari to'plamlari, ishda qo'llanilgan yondashuvlar va usullar, ular doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlarning rasmiy manbalardan olingani, qiyosiy o'rganishlar natijalari vakolatli tuzilma va tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati jamiyatda inson borlig'ining o'ziga xos xususiyatlari, antropologik identifikatsiyasi va mental omillarining yangi davrga xos bo'lgan jarayonlar nuqtayi nazardan tadqiq qilish, shuningdek, kundalik va ilmiy faoliyatda foydalanishning o'rnini aniqlashga oid ilmiy tadqiqotlar olib borishda ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida Ijtimoiy falsafa, Inson falsafasi, Ijtimoiy antropologiya va Antropologiya, Madaniy antropologiya fanlariga doir darslik va o'quv qo'llanmalarini tayyorlash, shuningdek, besh muhim tashabbus loyihasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda jamoat tashkilotlarida ilmiy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda ko'rinadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Inson borlig'i namoyon bo'lishining ijtimoiy-falsafiy jihatlari yuzasidan olib borilgan tadqiqotning ilmiy natijalaridan:

dunyoqarash aqliy faoliyat va ijtimoiy ongining dinamik o'zaro ta'sirini ifodalovchi parametr sifatida, insonning ijtimoiy antropologik o'ziga xosligini namoyon etuvchi ma'naviy borliq va axloqiy mo'tadillikning falsafiy aspektlarini rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Ekologik partiyasi "Ayollar qanoti" va "Yoshlar qanoti" loyihalarini amalga oshirishda bevosita foydalanildi (O'zbekiston Ekologik partiyasining Andijon viloyat Kengashining 2024-yil 26-noyabrdagi 65-son dalolatnomasi). Natijada, yoshlar o'rtasida milliy qadriyatlarni targ'ib qilishga qaratilgan tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etishda asos bo'lib xizmat qilgan;

insonning ijtimoiy-ontologik borlig'ini eksplikatsiya qilishda stoik falsafaning ataraxia (vazminlik, ichki muvozanat) va tasavvufiy introspeksiyaning sinergetik integratsiyasiga asoslangan paradigmal xususiyatlar, insonning ijtimoiy mohiyatining aksiologik va prakseologik funksiyalarini mustahkamlashga oid ilmiy taklif va tavsiyalaridan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2024-yil uchun chora-tadbirlar dasturining III yo'nalishida belgilangan "Milliy g'oya targ'ibotini kuchaytirish, jamiyatda sog'lom mafkura, yangi ma'naviy makon, ma'rifatli jamiyatni barpo etishga qaratilgan chora-tadbirlar" 19-bandi "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash doirasida zamonaviy va ta'sirchan targ'ibot texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish" mavzusida targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 9 - iyuldagi 10/331-son dalolatnomasi). Natijada, globallashuv davrida inson ma'naviyatiga nisbatan xavf tug'diruvchi yangi tahdidlar (axborot bosimi, sotsial

alienatsiya, identitetning yo'qolishi) ni tizimlashtirishga hamda inson borlig'i va uning ijtimoiy antropologik xususiyatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etishga xizmat qilgan;

jamiyatda inson borlig'ini belgilovchi ma'naviy (dunyoqarash, tafakkur), iqtisodiy (mehnat, moddiy ehtiyojlar), ijtimoiy (turmush tarzi, faoliyat) omillari o'rtasidagi barqarorlikni ta'minlashga doir xulosa va tavsiyalaridan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazida 2024 yil uchun chora-tadbirlar dasturining IV yo'nalishida belgilangan Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga munosabati va tanqidiy fikrlash mahoratini aniqlash maqsadida o'tkazilgan tadbirlarda dissertatsiya materiallaridan foydalanildi (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazining 2024-yil 4-noyabrdagi № ITID-24-07-sonli dalolatnomasi). Natijada, oliy ta'lim muassasasi talaba-yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga doir ontologik targ'ibotlarning zamonaviy, ta'sirchan, metodlarini ishlab chiqish hamda insonning kreativ faolligi va intellektual salohiyatiga ijobiy ta'sirini ochib berishga xizmat qilgan;

axborotlashish sharoitida insonning ma'naviy-antropologik borlig'ida yuz berayotgan virtuallashuv hodisasining kognitiv va aksiologik deformatsiyalari tasavvufning introspektiv (o'z-o'zini anglash) g'oyalari orqali ochib berishga doir taklif va tavsiyalardan 2024-yil uchun chora-tadbirlar dasturining III yo'nalishida belgilangan "Milliy g'oya targ'ibotini kuchaytirish, jamiyatda sog'lom mafkura, yangi ma'naviy makon, ma'rifatli jamiyatni barpo etishga qaratilgan chora-tadbirlar" 19-bandi "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash doirasida zamonaviy va ta'sirchan targ'ibot texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish" mavzusida targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 9 -iyuldagi 10/331-son dalolatnomasi). Natijada, insonning biologik, sotsiokultural va kommunikativ faktorlarining o'zaro bog'liqligini ochib berishga va inson borlig'i va uning ijtimoiy antropologik xususiyatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman va seminarlarda muhokama qilingan va aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish nashr ettirilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, asosiy matn 120 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, tadqiqotning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tabiat va jamiyat munosabatlarida insonning ijtimoiylashuv jarayonlari”** deb nomlangan birinchi bobida falsafiy fikr tarixida inson muammosi, uning ta'rifi, antik falsafa tarixida inson va uning paydo bo'lishi bilan bog'liq qarashlar hamda sharq va g'arb ta'limotlarida insonga oid ijtimoiy-falsafiy prinsiplarning uyg'unligi atroflicha tahlil qilingan.

Bu bobda inson muammosi falsafa tarixida qanday o'rganib kelingani tarixiy-kritik metod asosida tahlil etiladi. Qadimgi Sharq (Hind, Xitoy, Mesopotamiya) va G'arb (Yunon-Rim, ellinistik davr) tafakkuridagi inson haqidagi konsepsiyalarni qiyosiy yondashuv asosida tahlil qilib, ularning antropologik asoslarini izchil ochib bergan. Mifologik ongdan falsafiy tafakkurga o'tish jarayonida inson borlig'i haqidagi tasavvurlarning shakllanishi bosqichma-bosqich tahlil qilinadi. Ayniqsa, qadimgi madaniyatlarda insonning ma'naviy va jismoniy dualizmi, diniy antropotsentrik dunyoqarash, konfutsiylikdagi axloqiy model va daosizmga kosmologik uyg'unlik g'oyalari tahlil etilgan.

Inson muammosi doimo falsafaning bosh mavzularidan biri bo'lib kelgan. Inson tabiati, uning dunyodagi o'rni va vazifasini anglab yetishga ko'plab mutafakkir va olimlar harakat qilganlar. Inson haqidagi qarashlarning eng qadimiy zaminlari mifologik dunyoqarash mahsuli bo'lib, u nafaqat qadimgi davrlarning balki, I asr boshlariga qadar ham insoniyat ildizi to'g'risidagi qarashlarning jon tomiri bo'lib kelgan. Inson va u bilan bog'liq bilimlarni o'rganuvchilarning aksariyati, dastlabki bilimlarning asosini mif (afsona) deb hisoblaydilar<sup>18</sup>.

Birinchi falsafa, ya'ni kishilik falsafiy madaniyati tarixining birinchi bosqichi, mifologiyaviy dunyoqarash bilan uzviylikda bo'lib, u antik davrdan ancha oldin, qadimgi Sharqda, ya'ni Qadimgi Misr, Bobil, Markaziy Osiyo, Hindiston, Xitoyda boshlangan. Bu dunyoqarash, o'z predmetining globalligi, shuningdek, mutlaqo sirli xarakteri bilan ajralib turadi.

Inson - antik davrda kashf qilingan, deb hisoblash, an'ana tusini olgan. Tarixda juda chiroyli, ezgu niyatli va kuchli odamlar yashagan Atlantida haqida o'ta jozibali afsona mavjud. Bu afsonada aytilishicha, atlantlarning har biri o'zini o'ylab, o'z farovonligi haqida qayg'urib, o'zlashtirgan bilimlaridan shaxsiy maqsaddagina foydalanib, olamda insondan ulug'roq jonzot yo'q va har kim o'ziga o'zi qonun deb hisoblay boshlagach, Atlantida inqirozga yuz tutgan.

Platon bu ideal davlatga, Atlantika okeanidan geografik o'rin va tarixdan muayyan vaqt berdi – u 11500-yil oldin mavjud bo'lganini qayd etdi. Platon 70 yoshga to'lgach, Atlantida haqidagi afsonani eslash fursati yetdi. “Timey” va “Kritiy” dialoglarida Atlantida tarixi hikoya qilinadi. Platon o'z bobosi Timeydan,

<sup>18</sup> Шермухамедова Н.А. Фалсафа ва фан методологияси.-Тошкент,ЎзМУ.2005.-Б.48.

Timey – otasining Solon ismli yaqin do‘stidan, Solon esa – davlat ishlari bilan Misrda bo‘lgan paytida shu yerlik kohindan eshitgan rivoyat to‘g‘risida so‘z yuritiladi: “To‘qqiz ming yil muqaddam sizlar Gerakl ustunlari (Gibraltar bo‘g‘ozi) deb ataydigan bo‘g‘oz ortida, Atlantida degan katta orol bo‘lgan. Bu orolda qirollarning qudratli va ajoyib sulolasi yuzaga kelgan. Bu sulola juda ko‘p mamlakatlarni o‘ziga bo‘ysundirishga harakat qilgan. Ammo, bir nechta kuchli zilzilalar bu orolni qismlarga bo‘lib tashlagan, keyinchalik u suv ostida qolgan va butunlay yo‘q bo‘lgan”<sup>19</sup>.

“Kritiy” dialogi manzarani quyidagicha to‘ldirish imkonini beradi. Xudolar Yerni o‘zaro bo‘lib olganlarida, donishmandlik ilohi Afinaga Gretsiya, dengiz xudosi Poseydonga Atlantida teggan. Poseydon orolda yashaydigan Kleyto ismli qizni sevib qolgan. Kleyto unga o‘nta o‘g‘il tug‘ib bergan. Bu o‘g‘illarning har biri keyinchalik orolning o‘z qismida hokimlik qilgan va faqat oliy hukmdor Atlas yoki yunoncha Atlantga bo‘ysungan. Atlantida aholisi yuksak axloqiy me‘yorlarni asrlar davomida saqlab kelgan. Lekin vaqt o‘tishi bilan ular juda izzatlab va ochko‘z bo‘lib qolganlar. Shunda Zevs ularni jazolashga qaror qilgan<sup>20</sup>.

Atlantida haqidagi afsona katta axloqiy jihatga ega. U axloqiy nopoklikdan saqlanishga chaqiradi, ayni vaqtda, inson o‘z millatdoshlari va butun dunyo taqdiri uchun mas’ul ekanligi haqida ogohlantiradi. Atlantida afsonasi orqali **axloqiy inqiroz va jamiyatning halokatiga olib keluvchi sabablar ifodali tahlil qilingan.**

Ezoterizm zamirida inson g‘ayritabiiy kuchlar markazidir, degan g‘oya yotadi. Agrippa to‘rt jildli “Okkult falsafa” asarida shunday yozgan: “Shuni bilginki, biz bu buyuk ishlarning sabablarini o‘zimizdan tashqarida izlamasligimiz kerak, chunki bizning ichimizda Tangri va dinga shak keltirmasdan astrologlar va alximiklar va’da qilgan barcha amallarni bajarishga qodir faol mavjudot yashaydi... Mo‘jizalar yaratuvchi ibtido bizning o‘zimizda mujassam”. G‘ayrioddiy harakatlar nafaqat yulduzlar, jinlar ko‘magida, balki ruhimiz kuchlari bilan ham amalga oshiriladi, degan fikr “Okkult falsafa” asarida ko‘p marta takrorlangan<sup>21</sup>.

Qadimgi Hind va Xitoy faylasuflari farovon turmushni yaratish zarurligini doimo ta’kidlab kelganlar va farovon turmush tarzini orzu qilganlar. Ana shunday hayotni barpo etishda, asosan, insonning o‘zi mutasaddi ekanligini isbotlashga uringanlar. Bu narsa Maxavira Vardxamana, Konfutsiy, Mo Di kabi donishmandlarning qarashlarida o‘z tasdig‘ini topgan.<sup>22</sup>

Qadimgi Yunoniston faylasuf va mutafakkirlari inson va inson kapitali borasida o‘z fikrlariga ega edilar. Jumladan, Suqrot falsafasining markazida inson hayoti, uning jamiyatdagi o‘rni, odamlar farovonligini ta’minlovchi adolatli tuzumni barpo etish muammolari turardi. U odamlarni ma’rifatli qilish orqali chinakam axloqiy kamolotga erishish mumkin, deb hisoblagan.<sup>23</sup> Uning shogirdi

<sup>19</sup> Платон//Всемирная энциклопедия.-М.: Современный литератор, 2001. –С. 234.

<sup>20</sup> Ўша ерда.-С.234.

<sup>21</sup> Агриппа О. Оккультная философия.-СПб.: АГРАФ, 2005.-С.54.

<sup>22</sup> Choriyev A. Inson falsafasi. Birinchi kitob. – Toshkent:O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.2007. - В 13-27

<sup>23</sup> Лосев А.Ф. История античной эстетики. Софисты. Сократ. Платон. - Москва: 1969. - С. 47-48.

Aflotun esa insonning farovon hayot kechirishi uchun kerak bo'ladigan fazilat va xislatlar o'qish va tarbiya yordamida vujudga keladi,<sup>24</sup> - deydi.

Ilmiy tadqiqot ishimizda shuni ta'kidlab o'tmoqchimizki, oxirgi o'n yilliklarga kelib, kapital faqatgina moddiy qiymatlardan iborat degan qarash o'z ahamiyatini yo'qotdi. Hozirda, kelajakda daromad olishda foydalaniladigan har qanday moddiy - nomoddiy qiymat va boyliklar bu - kapital hisoblanadi. Olimlar kapital nazariyasi bo'yicha bahslarda aynan nimani kapital deb atash bo'yicha bir to'xtamga kela olmadilar.

XIX asrga kelib g'arbda inson kapitali konsepsiyasi vujudga keldi va amerikalik neoklassik olimlar "Chikago maktabi" namoyandalari: G.Bekker, B.Veyebrod, E.Denison, Dj.Minster, I.Fisher, M.Fridment, T.Shuls kabilar iqtisodiyot yo'nalishlarida, turli yillarda Nobel mukofoti laureati bo'lganlar. Ayniqsa, T. Shuls izlanishlari natijasida qo'lga kiritilgan bilimlar ko'pchilikning e'tiboriga tushgan.

**"Insonning uchlik tabiati" konsepsiyasi** (aql-jon-tana) orqali inson mohiyatining ko'p qatlamli tuzilmasi zamonaviy antropologik qarashlar bilan uyg'unlashtirilgan.

Taniqli tasavvufshunos olim N. Komilov o'zining qarashlarida inson evolyutsiyasining keyingi pog'onalari qanday yoritilganligiga alohida e'tibor qaratadi. : ya'ni – jismlikdan kechib o'simlik bo'ldim, o'simlikdan kechib hayvonga do'ndim. Hayvonlikdan kechib odam bo'ldim. Bas ... nega qo'rqayin axir baridan kechib ... kam bo'lganim yo'q-ku! Endi odamlikdan butkul kechmoqchiman... toki, farishtalarday qanot chiqarayin. Ammo farishtalardan ham sakrab o'tishim kerak. Chunki, "Bor mavjudot halokatga yuz tutadi" (deyladi Qur'onda). Yana bir marta farishtalikdan parvoz etayin, xayol bovar qilmaydigan ne narsa bo'lsa o'shanga aylanayin. Keyin kuy kabi g'oyib bo'layin yo'qlik qa'riga, shunda Tangrim desin: - barchasi o'zimga qaytguvchidir<sup>25</sup>. Ushbu qarashlar Yunon faylasufi Geraklitning barcha narsalarning harakatda va to'xtovsiz o'zgarishda bo'lishi ularning mavjudligiga ziddir, chunki harakatdagi har bir predmet ayni vaqtning o'zida mavjud emas<sup>26</sup> degan fikrlariga mantiqan o'xshashdir.

Bu borada E.Kassirer o'ziga xos xulosaga kelgan. Uning fikricha, «kosmologik va antropologik tafakkur o'rtasidagi chegarada Geraklit turadi; u naturfaylasuf sifatida fikrlagan va qadimgi "fiziolog"lar qatoriga kirgan bo'lsa-da, inson sirini ochmasdan tabiat sirining tagiga yetib bo'lmasligini tushungan... Shu sababli, Geraklit falsafasini quyidagi ibora bilan tavsiflash mumkin: "Men o'zligimni o'zim izlayman"<sup>27</sup>. Geraklit insondagi hissiy bilish jarayonining, uning tana tuzilishi bilan bog'liq ekanligi to'g'risidagi fikrlarni bayon etar ekan, joni dag'al, ya'ni tanasi dag'al bo'lgan kishilarda olov elementi kam bo'ladi, shuning uchun ham ularning hissiyot uyg'otuvchi tashqi organlari haqiqiy bilim bera olmaydi deb uqtiradi.

<sup>24</sup> Платон. Сочинения. В трёх томах. Том 3, часть 1. – Москва: 1971. -С. 515.

<sup>25</sup> Комилов Н. Тасаввуф.Тавхид асрори.-Тошкент: Ўзбекистон, 1999.-Б.11-12.

<sup>26</sup> Йўлдошев С.ва бошқалар.Қадимги ва ўрта аср Фарбий Европа фалсафаси.-Тошкент:Шарк, 2003.-Б.13.

<sup>27</sup> Фрагмент 101\ Материалисты древней Греции.-Москва.1955.-С.50.

“Zamonaviy iqtisodiy lug‘atda” kapital keng ma’noda daromad olib keladigan barcha narsa yoki tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun odamlar tomonidan yaratilgan resurs sifatidagi ijtimoiy ta’rifga ega bo‘lsa-da, tor ma’noda ishlab chiqarish vositasi sifatida, ishga tikilgan daromad manbai hisoblandi<sup>28</sup>.

Sharq falsafasida, jonning o‘lmasligi haqidagi tasavvurlar qadimdan paydo bo‘lgan bo‘lib, qadimgi odamlar o‘z tanalarining tuzilishi to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lmay, hatto uyqu holati va tush ko‘rishning sabablarini ham izohlay olmaganlar. Shundan so‘ng, ibtidoiy odamlarda inson tanasini boshqaradigan qandaydir alohida kuch mavjud bo‘lib, bu kuch inson o‘lgandan keyin, tanadan chiqib ketadi degan tasavvurlar paydo bo‘lgan<sup>29</sup>. Jon va ruxlarning mavjudligi to‘g‘risidagi ta’limotlar, Sharq xalqlarining barchasiga tegishli bo‘lib, uning yaratuvchisi Xudo - oliy rux hisoblangan.

Inson intellektual salohiyati va ijodiy qobiliyatning ahamiyatini ilmiy nuqtayi nazardan yoritib bergan va inson kapitali konsepsiyasining shakllanishiga poydevor qo‘ygan olim A.Smit hisoblanadi. Uning qarashlarida ishlab chiqarishning natijaviy maqsadi va jamiyat ijtimoiy boyligining bir qismi bo‘lgan inson, asosiy figura sifatida maydonga chiqadi<sup>30</sup>. XIX asr oxiriga kelib yana bir iqtisodiyot sohasining yirik vakili A.Marshall ham o‘z nazariyalarini ilgari surdi. “Moddiy boyliklarni ishlab chiqarish bu faqatgina inson hayotini ta’minlash, uning ehtiyojlarini qondirish va jismoniy, aqliy, ma’naviy imkoniyatlarini o‘stirish uchundir. Ammo, insonning o‘zi ushbu boylikni ishlab chiqarishning asosiy vositasi, pirovard maqsadi hamdir”<sup>31</sup>.

Bizningcha, insonni kapital deb olsak, u mehnatkash kishilar yig‘indisi emas, balki ta’bir joiz bo‘lsa, bu professionalizm, bilimga chanqoqlik, axborot olishga intilish, sog‘likka bo‘lgan e’tibor, hayotga nisbatan optimizm, tashabbuskorlik, mehnatsevarlik kabi gullardan iborat guldastadir. Ya’ni bunda ko‘rib chiqilgan ta’riflarni qiyoslagan holda, o‘z ta’rifimizni shakllantirishimiz mumkin bo‘ladi. Kapital bu ko‘p vaqt mobaynida daromadni ta’minlaydigan to‘planish (jamg‘arilish) xususiyatiga ega har qanday ne’mat zaxirasidir. Buning natijasida, insonga xos antropologik mohiyat, qobiliyat va ijtimoiy mavqe - kapitalning sof, konkret shakli sifatida e’tirof etiladi.

Umumiy holda, inson bu- ratsionallik va irratsionallik mohiyatiga ko‘ra aql va axloq xususiyatlarini birlashtirgan, shaxsning yuqori darajadagi ma’naviy-ideallik kuchi ustuvor bo‘lgan inson mohiyatidir.

Dissertatsiyaning **“Insonning ijtimoiy tabiati va falsafiy mohiyati talqini”** deb nomlangan ikkinchi bobida, Inson va uning sotsiologizatorlik va biologizatorlik funksiyalari tahlili hamda Yangi davr G‘arbiy Yevropa falsafasida insonning ijtimoiylashuvi masalasi hamda individuallik va individ tushunchalarining talqini kabi masalalar yoritilgan. Inson haqidagi falsafiy

<sup>28</sup> Райсберг Б.А., Лазовский Л.Ш., Стародуцева Е. В. Современный экономический словарь.- Москва: 1997. - С. 141.

<sup>29</sup> Абдусамедов А. Динлар тарихи.Тошкент. Ўқув қўлланма.2004.-Б.23.

<sup>30</sup> Верякина В.Динамика развития человеческого потенциала и приоритеты высшего образования. Высшее образование в России. - Москва: 2005 - № 2.

<sup>31</sup> Marshall A. Principles of Economics. – London: 1983. -P. 482.

qarashlar inson tabiati va mohiyatini farqlash zarur degan xulosaga olib kelgan. Bu yerda aniq chegara bo'lishi mumkin emas, chunki inson doim olam jumbog'i, uning ochilmagan siri bo'lib kelmoqda. Lekin, shunga qaramay, fanda inson qobiliyati va sifatleri majmuini uning tabiati bilan bog'lab o'rganish qabul qilingan. Aqllilik, muomala qilish va ijtimoiy hayot kechirish qobiliyati insonning asosiy xususiyatlari hisoblanadi.

Inson mohiyati esa, o'z tabiatining teran o'zagi, faqat "insongagina xos bo'lgan" jihatlar yoki insonni oliy hayvondan farqlash imkonini beruvchi sifatlar bilan bog'liqdir. Inson mohiyati nimada, degan savolga mutafakkirlar har xil javob beradilar. "Inson mohiyati ayrim individga xos bo'lgan mavhum narsa emas. Amalda u barcha ijtimoiy munosabatlar majmuidir", degan ta'rif insonning ijtimoiyligini odamzodning eng muhim va asosiy negizi sifatida qayd etadi. Bu yondashuv butun insoniyatning yagona teran mohiyati va aniq qayd etiladigan inson tabiati mavjudligini inkor etuvchi falsafiy antropologik relyativizmning amaldagi muqobilidir.

Mazkur bo'limda insonning ikki asosiy talqini – **biologizatorlik** va **sotsiologizatorlik** nuqtai nazarlari falsafiy-antropologik kontekstda tahlil qilinadi. Muallif inson tabiati va mohiyatining murakkabligi, uning ijtimoiy va biologik jihatlarining o'zaro bog'liqligi haqida izchil mulohazalar bildiradi. Shu asosda insonni **yagona, yaxlit bioijtimoiy mavjudot** sifatida ko'rish zarurligi asoslab berilgan.

Dunyo markaziga insonni qo'yuvchi yondashuv doimo **antropotsentristik** yondashuv deb atalgan. Qadimgi sofist Protagorning: "Inson barcha narsalarning mezoni", degan mashhur iborasi antropotsentrizmning aniq ifodasidir. Bunda jonsiz va jonli tabiatning o'zaro ta'siri inson me'yorlari, ideal hamda da'volari nuqtayi nazaridan qaraladi. Inson dunyoning asosiy va eng katta boyligi sanaladi. Zero, insonning hayvondan farqi uning ilohiy darajaga ko'tarila olishidadir<sup>32</sup>.

Ammo insonni bilish sohasida antropotsentrizmdan tashqari boshqa yondashuvlarga ham duch kelish mumkin. Tabiatni hamma narsadan ustun qo'yuvchi naturalistik yondashuv – **tabiiy sentrizm** va u bilan uzviy bog'liq bo'lgan **naturalizm prinsipi** shular jumlasidandir. Bu yerda inson – tabiat farzandi. Uning barcha xato va kamchiliklari boshqa har qanday tabiiy jarayonlar singari o'rinli hamda tabiiydir. **Kosmotsentrizm** – kosmosning hamma narsani, shu jumladan, insonning mohiyati va tabiatini ham belgilovchi ta'siriga ishora qiluvchi dunyoqarash, bo'lib hisoblanadi. Tarixiy sivilizatsion jarayonda **teotsentrizm** ta'limoti ham muhim rol o'ynagan. U oliy, g'ayritabiiy mavjudotni dunyoning asosiy va eng muhim omili deb e'lon qilgan.

Bu faylasuflarning umumiy fikrlaridan kelib chiqadigan ilmiy asos shuki, **inson ijtimoiylashuvi – bu biologik, nutqiy, axloqiy, gnoseologik va ekzistensial jarayonlarning sintezidir**. Bu jarayon ijtimoiy muhit va tarixiy-madaniy kontekstda shakllanadi. Insonning "odam bo'lishi" tabiiy holat emas, balki ijtimoiy-madaniy transformatsiyaning natijasi sifatida yuz beradi.

---

<sup>32</sup> Шелер М. Избранные произведения. Москва: Гнозис. 1994. стр-26.

Insonni ijtimoiy mavjudot sifatida tushunishda Yangi davr G'arbiy Yevropa falsafasi ontologik, gnoseologik va antropologik asoslarni chuqur o'rganadi va "ijtimoiylashuv" tushunchasini nutq, axloq, tafakkur va muhit bilan chambarchas bog'laydi. Bu esa zamonaviy falsafiy antropologiyaning asosiy tamoyillarini belgilaydi.

T. Shulsning ta'kidlashicha, inson layoqati "investitsiya xususiyatiga ko'ra faoliyatning alohida turlari natijasida rivojlanadi". Shunday investitsion faoliyat turlariga: maktab ta'limi, ish joyidagi tajriba orttirish, sog'likni mustahkamlash, iqtisodga doir ma'lumotlar zaxirasining o'sishi kiradi<sup>33</sup>.

Negaki, dunyo sivilizatsiyasining barcha davrlarida insoniyat doimo yashashga intilib, ilm, yashash sharoitlari va noz-ne'matlar yaratish ishtiyoqida bo'lgan. Har qanday jamiyatda, inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishda bilim -falsafiy nuqtayi nazardan, jahon e'tirof etgan asosiy omillardan biri hisoblangan.

Prezident Sh.Mirziyoyevning ta'lim tizimida milliy va zamonaviy kadrlarni tayyorlashga alohida urg'u berayotganligini, "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz"<sup>34</sup> deb aytilgan so'zlarda ham anglash mumkin bo'ladi.

Lametri o'z falsafiy qarashlari bilan Dekartning hayvonlar his etishdan mahrumdirlar, degan fikriga qarama-qarshi. Barcha tirik jonivorlar bir xil his etish qobiliyatiga egadirlar. Bu xol faqat insonlargagina xos emas, balki barcha tirik jonzotga ham taalluqlidir, degan g'oyani ilgari suradi. Uning bu qarashlari "Inson — mashina" nomli asarida yaqqol o'z ifodasini topgan<sup>35</sup>.

U shuningdek, insonning kelib chiqishi uchun faqat biologik omil yetarli bo'lmay, balki til va nutq ham katta rol o'ynaydi, deydi. Shuningdek, ijtimoiy muhit ham insonning shakllanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Bu vositalarsiz inson, Lametrining fikricha mug'ombir, xavfli va yirtqich hayvondir. U xuddi shunday fazilatlar bilan vujudga keladi va jamiyat ta'sirida insoniylasha boradi. Sezgilar hamma narsadan ustun turishini isbotlashga harakat qilgan Lametri, inson tanasi lazzatlanadigan holatlarni muhim hisoblaydi.

Aristotelning insonning ijtimoiy mohiyati haqidagi o'z metodologik salohiyatiga ko'ra ancha to'g'ri va samarali g'oyasi umuman inson, uning umumiy mohiyati hamda tabiati haqida fikr yuritishga majbur qiladi, lekin antik davrda "shaxs" tushunchasi to'g'risida ham, "individuallik" tushunchasi to'g'risida ham so'z yuritilmagan. Antik davrda hukm surgan dunyoni tushunishning ijtimoiy-madaniy modelida berahm qismat inson irodasining erkinligini qat'iy taqiqlagan. Erkinlik ayrim individlar uchun ancha ajabtovur shaklda, ular taqdiri azalni anglab yetib, uning hukmini bajargan, qanchalik og'ir, bema'ni yoki fojiali bo'lmasin, shu hukmga muvofiq harakat qilgan holda mumkin bo'lgan.

<sup>33</sup> Schultz T.W. Investment in Human Capital. American Economic Review, vol. 51, iss. 1. - 1961. - P. 1–17.

<sup>34</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017 й.

<sup>35</sup> Йулдошев С, Усмонов М, Каримов Р, Кобулниёзова Г, Рўзматова Г. Янги ва энг янги давр Ғарбий Европа фалсафаси (XVII-XX асрлар). Тошкент: Шарқ, 2002. -Б.88.

Stoiklarning inson konsepsiyasida, inson va dunyo o'rtasida to'la muvozanatga erishish eng muhim fazilat hisoblanadi. Stoiklarga xos "vazminlik", sabotlilik shu qadar kuchliki, uni hech qanday tashqi kuchlar va kataklizmlar yenga olmaydi. Ushbu qarash doirasida dunyoga xos, individual munosabat ruhi bilan sug'orilgan shaxsiy, teran kechinmalar to'g'risidagi masala o'z ahamiyatini yo'qotadi. Birdan bir ideal barchaning hamma bilan to'la uyg'unligiga erishish, bosh shart – ataraxia – vazminlikka so'zsiz rioya qilishdan iborat. O'ziga muhabbat emas, balki amor fati – "qismatga muhabbat" behuda tashvishlar va g'am-anduhlardan xalos etadi. Butun koinotni taqdir boshqaradi. Iroda kuchi aynan taqirdan oliy hech narsa yo'qligini, inson o'zining yashash burchini vazminlik, sovuqqonlik bilan ado etishi lozimligini tushunishda namoyon bo'ladi. Stoiklarning vazmin, sabotli shaxs ideali barcha odamlarni tenglashtiradi, ularning har xilligi va bir-biriga o'xshamasligini unutishga majbur qiladi.

Qadimgi arxaik madaniyatlarda individuallikning o'ziga xosligini man etish hollariga ham duch kelish mumkin. Bu taqiqning ijtimoiy-madaniy asoslari diqqatga sazovordir. Tropic Afrika madaniyati bo'yicha mutaxassis V.B.Iordanskiy etnograf J.Lafonten ma'lumotlariga suyanib quyidagi dalillarni keltiradi: Bigusu (Afrika)da individual, o'ziga xos xulq-atvorli odamlarni jodugarlikda ayblaganlar. "Bolalar o'ziga xoslik xavfli, degan fikr bilan o'sgan. Odatdagi xulq-atvor me'yorlaridan haddan tashqari chetga chiqish odamga nisbatan shubha tug'ilishiga, uning jamoadan chetlatilishiga imkoniyat yaratgan, pirovard natijada, uning qatl etilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan"<sup>36</sup>.

Bizningcha zamonaviy tafakkurda individuallik shaxsning ijtimoiy tan olinishi, erkin fikrlashi, maqsadga yo'naltirilganligi, o'zgaruvchan muhitga moslashuvchanligi kabi mezonlar orqali belgilanadi. Shaxs – bu o'z individual dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy funksiyasi va psixologik yaxlitligi bilan ajralib turuvchi insondir.

Tadqiqotdan kelib chiqadigan asosiy ilmiy xulosa shundan iboratki, shaxsni to'liq anglash uchun individ, individuallik va shaxs tushunchalarining o'zaro farqlari va bog'liqliklarini aniqlash, ularni madaniy-falsafiy va ijtimoiy nuqtai nazardan talqin qilish zarur. Aynan individuallik insonning erkinligini, jamiyatdagi faol pozitsiyasini va ma'naviy yetukligini aniqlovchi transformatsion tamoyil sifatida talqin qilinishi mumkin.

Dissertatsiyaning "**Global inqiroz va inson ma'naviyati**" deb nomlangan uchinchi bobida mintaqaviy muammolar, inson ma'naviyatiga qarshi tahdidlar va ularni bartaraf etish usullari, ijtimoiy borliq va inson ijtimoiylashuvi postmodern - qudratli inson konsepsiyasi tahlil qilingan.

Shuningdek, mazkur paragrafda insoniyat duch kelayotgan antropologik inqirozning zamonaviy shakllari – ekologik, axboriy, madaniy va ma'naviy tahdidlar ko'p qirrali tarzda tahlil qilingan. Markaziy Osiyo mintaqasidagi ekologik muammolarni, xususan, Orol fojiasi va sanoatlashgan hududlardagi atmosfera havosining ifloslanishini inson salomatligi va ma'naviy olamiga

---

<sup>36</sup> Иорданский В.Б. История культуры Африки.-М.: АСТ, 2004. –С. 6.

bevosita tahdid sifatida ko'rsatadi. Bu jihatdan **ekologik inqiroz antropologik inqirozning ajralmas tarkibiy qismi** sifatida baholanadi.

Bugungi ma'naviy antropologik inqirozga sabab bo'layotgan, bir qarashda arzimasdek ko'ringan kichkina xabar ham, globallashuv shiddati natijasida alanga olib, ko'zga ko'rinmaydigan va zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan darajada ziyon yetkazuvchi qudratga ega ekanligini his qilib, har tomonlama chuqur o'ylangan, ilmiy asoslangan xolda tashkil etilgan, uzluksiz ma'naviy tarbiya bilan javob berish lozim bo'ladi. Toki, yoshlarimiz o'z milliyligini saqlagan holda, dunyoni chuqur anglagan, davr shiddati bilan hamnafas va hamqadam insonlar bo'lib yetishlari zarur. Ana shundagina, axloq-odob tushunchalarini rad etadigan, ma'naviy, ijtimoiy, siyosiy tusga ega bo'lgan antropologik muammolarni oldini olish mumkin bo'ladi.

Internet – hozirgi davrda ensiklopedik ahamiyatga ega bo'lgan manba sifatida e'tiborli jihatlari bilan ayniqsa yoshlar ongi va dunyoqarashiga kuchli ta'sir o'tkazmoqda. Shu sababli ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni internetdagi axborotni to'g'ri idrok etishga, mushohada qilishga o'rgatib borish zarurati paydo bo'lmoqda.

Umuman olganda, global tarmoqdagi ayrim axborotlar jamiyatimiz taraqqiyotiga va milliy qadriyatlarimizga tahdid solmoqda. Insoniyatning bir necha ming yillik tajribasining isboti shuki, dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga bo'ysundirmoqchi bo'lsa, avvalambor, milliy qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadilar.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, sobiq sho'ro hukumati davrida millat milliy o'zligini anglashning muhim sharti bo'lgan tariximizni hamda madaniyatimizni yo'q qilishga harakat qilindi. "O'sha davrda milliy mafkuraga, o'zlikni anglashga, barcha nazariya va g'oyalarga qarshi kurash amalga oshirilgan"<sup>37</sup>.

Shu o'rinda aytish joizki, internet ham o'tgan asrning 60-yillari oxirlarida AQSH olimlari tomonidan dastlab harbiy maqsadlarni ko'zlab kashf qilingan edi. Demak, sobiq ittifoq davrida yagona mafkura tajovuzi mavjud bo'lgan bo'lsa, bugun ana shunday global tarmoqlar orqali xuruj qilayotgan, farzandlarimizni o'z domiga ilintirishni xohlayotgan g'oya va mafkuralar behisob.

Bizningcha, bunday xatarlardan qutulishning yagona yo'li, jamiyatimiz yoshlarini milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hamda, ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy merosga, ya'ni uni komillikning zaruriy sharti ekanligiga ishonitirish va ularda to'g'ri fikrlashni shakllantirish zarur.

